

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ERGASHOV JASURBEK DILMURODOVICH

EGILUVCHI TEMIRBETON ELEMENTLARDA QO‘LLANILADIGAN
BAZALTFIBROBETONNING MUSTAHKAMLIK VA DEFORMATSION
XUSUSIYATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlari

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent– 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Ergashev Jasurbek Dilmurodovich

Egiluvchi temirbeton elementlarda qo‘llaniladigan bazaltfibrobetonning
mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarining o‘ziga xosligi..... 3

Особенности прочностных и деформационных характеристик
базальтофибробетона, применяемого в изгибаемых
железобетонных элементах 27

Features of strength and deformation characteristics of basalt fiber
concrete used in flexible reinforced concrete elements..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 58

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ERGASHOV JASURBEK DILMURODOVICH

EGILUVCHI TEMIRBETON ELEMENTLARDA QO‘LLANILADIGAN
BAZALTFIBROBETONNING MUSTAHKAMLIK VA DEFORMATSION
XUSUSIYATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlari

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4964 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqi.uz va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akramov Xusnitdin Axrarovich
texnika fanlari doktori., professor

Rasmiy opponentlar:

Siddiqov Ikrom Iminjanovich
texnika fanlari doktori., professor

Yuvmitov Anvar Sayfullayevich
texnika fanlari doktori., k.i.x.


Yetakchi tashkilot:

“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «25» noyabr soat 10⁰⁰ da TAQU 4-bino majlislar zalida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9 uy, 4-bino, 5-qavat Tel/faks (55) 508-50-14, 508-03-12 e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№175 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy. Tel.: (+99890) 372-71-94; faks: (+99871) 234-15-11, e-mail: taqi_atm@edu.uz). faks: (99871) 241-80-00, e-mail: taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «11» noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil « 06 » oktyabrdagi 58/2025 - raqamli reestr bayonnomasi).



A.I. Adilxodjaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari, t.f.d., professor

I.I. Siddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda qurilish sanoatini samaradorligini oshirish ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog'liq. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat sarfini kamaytirish, material va energiya resurslarini tejab ishlatish hamda yangi materiallarni qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu yo'nalishlardan biri dispers armaturalangan betonlarni keng qo'llash doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi, chunki ular hozirgi kunda qurilish sanoatining turli sohalarida qo'llanishi kengayib bormoqda.

Dispers armaturalangan betonlarni konstruksion materiallar orasida kelajagi bor deb hisoblanadi, chunki ular hozirgi kunda sanoatning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Dispers armaturalash beton matritsa hajmi bo'ylab bir tekis tarqalgan tolalar-fibralar bilan amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda respublikamizda turli tolalarni dispers armatura sifatida qo'llashga qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Buning asosiy sabablardan biri bunday betonlarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lib, zamonaviy qurilish talablariga javob beradi va ularni amaliyotga tadbiq etish masalaning dolzarbligini va zaruratini belgilaydi.

Sement betonlarning cho'zilishdagi yetarli bo'lmagan mustahkamligini oshirish maqsadida tolalardan armatura sifatida foydalanish, betonlarning yangi turini yaratish uchun imkoniyatlar borligini ko'rsatdi. Dispers armaturalangan betonlarning tadqiqoti va ularni qo'llashning tajribasi natijalari shuni ko'rsatdiki, buning oqibatida ijobiy ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

Fibra tolalarining xossalari ular asosidagi betonlarni (fibrobeton) xususiyatlarini belgilaydi hamda ishlatish mumkin bo'lgan sohalarini aniqlaydi. Fibra tolalari orasida keng tarqalganlari bu - po'lat, shisha, polipropilen va bazalt tolalari hisoblanadi. Ularni maqsadga muvofiq ishlatish va samaradorligini ta'minlash uchun ko'pgina masalalarga javob topishga to'g'ri keladi. Ulardan asosiylaridan biri bu - fibrobeton xossalari fibra tola turi, ularning beton tarkibidagi optimal miqdori va fibrobetonning o'ziga xos xossalari aniqlanganligi hisoblanadi. Bu masalalarni hal qilishda mahalliy materiallarni qo'llab o'tkaziladigan yangi eksperimental-nazariy tadqiqotlar yordamida o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ularning natijalarini amaliyotga qo'llash qurilish sohasining rivojlanishiga muayyan xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fani va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fani va texnologiyalar rivojlantirishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Fibrobetonlarning va dispers armaturalangan betonlarning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan. Bulardan xorijda Ayvazyan E.S., Nekrasov V.P., Kapriellov S.S., Perfilov V.A., Puxarenko Yu.V., Panteleev D.A., Rabinovich F.N., Stepanova V.F., Korneeva I.G., Kudyakov K.L., Beddan M., Abdulhadi M., Alexey S., Brik V., Raj S., Abu Mahadi M., Kuldashev K.L.

Respublikamizdan Kasimov E.K., Asqarov B.A., Akramov X.A., Yusupov R.R., Adilxodjaev A.I., Yusufxo'jaev S.A., Samig'ov N.A., Xodjaev S.A., Komilov X.X., Usmonov V.F., Razzakov S.J., Yuvmitov A.S., Berdiev O.B., Muxammadiev N.R.,

Martazaev A.Sh. va boshqa olimlarning ilmiy va eksperimental tadqiqotlariga bag'ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Ushbu tadqiqot bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betonlar va ular asosidagi temirbetonning samaradorligini oshirilishiga qaratilgan bo'lib, davlat dasturlari doirasida Toshkent arxitektura qurilish universitetida bajarilgan IL-722209824 raqamli "Bazalt, metall va shisha asosida standartlarga mos hamda seysmik mustahkamlik konstruksiyasiga ega fibrobeton olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha bo'yicha o'tkazilgan izlanishlar bilan bog'liq, hamda yangi texnologiya asosidagi bazaltfibrobetonlarni joriy qilish bilan uzviy bog'langan.

Tadqiqotning maqsadi bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarini, bazaltfibrotemirbeton egiluvchi elementlarning kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarining o'ziga xosliklarini eksperimental-nazariy tadqiqotlar asosida o'rganish hamda ularning hisoblash uslublari bo'yicha taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu dissertatsiyada qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar shakllantirildi:

- bazalt tolalarini beton hajmi bo'yicha bir tekis taqsimlanishini ta'minlovchi beton qorishmasini tayyorlash texnologiyasini taklif etish;

- optimal tarkibli bazaltfibrobetonlarni mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tizimli eksperimentlarni o'tkazish;

- eksperiment natijalari bo'yicha bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarini belgilash bo'yicha takliflar kiritish;

- qisqa muddatli yuklashlardan bazaltfibrotemirbeton egiluvchi elementlarning kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarini beton mustahkamligi va armaturalash foizi ta'siridan o'zgarishlarini eksperimental tadqiqoti;

- me'yoriy xujjatlar uslublaridan foydalanib bazaltfibrotemirbeton egiluvchi elementlarni mustahkamlik, darzbardoshlik va deformatsiyalanishlarini hisoblash bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob'ekti. Bazaltfibrobetonlardan tayyorlangan standart namunalari va egiluvchi temirbeton elementlari.

Tadqiqotning predmeti. Bazaltfibrobetonlarning mustahkamlik va deformatsiya xususiyatlari, temirbeton to'sinlarning mustahkamlik, darzbardoshlik va bikrligining qisqa vaqtli yuklashlar ta'siridan kuchlanish-deformatsiyalanish holati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Beton namunalari va temirbeton egiluvchi elementlari eksperimental tadqiqotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan standart usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish, mavjud eksperimentlar bilan solishtirish; me'yoriy usullar bo'yicha hisoblashlarni eksperiment natijalari bilan taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- bazaltfibrobeton qorishmasini tayyorlash texnologiyasi bo'yicha berilgan yangi taklifdan foydalanish bazalt tolalarning beton hajmi bo'yicha bir tekis taqsimlanishini ta'minlagan;

- tizimli eksperiment natijalari va ularning nazariy tahlili yordamida

bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlari oddiy betonlarga nisbatan yuqori ekanligi oʻrnatilgan;

- bazaltfibrobeton tarkibiga superplastifikator qoʻshish ushbu betonning mustahkamligini 20-25% oshirishi aniqlandi va ular tarkibining optimal miqdorlarini hisoblash uchun matematik model yaratilgan;

- bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarini oʻziga xosligini ifodalovchi real qiymatlari oʻrnatilgan va beton konstruksiyalarini hisoblashda ularni meʼyorlash boʻyicha takliflar berilgan;

- bazaltfibrobeton namunalariga qisqa muddatli siqilishlar taʼsiridan ularning tarkibida bosqichma-bosqich yuzaga keladigan mikro darzlarning hosil boʻlish parametrlari va buzilish xarakterlari aniqlangan va ularni hisoblash uchun matematik ifoda taklif etilgan;

- bazaltfibrot Demirbeton egiluvchi elementlarining mustahkamligini, darzbardoshligini va deformatsiyalanishini hisoblashda foydalanish uchun amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida bazaltfibrobetonning mustahkamligi boʻyicha, shu jumladan superplastifikator qoʻshilgan betonlarda yangi eksperimental natijalar olingan;

bazaltfibrobeton qorishmasini tayyorlashning taklif etilgan texnologiyasini joriy qilish oʻzining amaliy tasdigʻini isbotladi;

bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarining oʻziga xosliklari bir xil tarkibli xuddi shunday qoʻshimchasiz ogʻir betonlarga nisbatan eksperimentlar natijalari bilan oʻrnatilgan;

egiluvchi bazaltfibrot Demirbeton elementlarining mustahkamligi, darzbardoshligi va deformatsiyalanishining oʻziga xosliklari xuddi shunday qoʻshimchasiz ogʻir betonli toʻsinlarga nisbatan beton mustahkamligi va armaturalash foizining oʻzgarishlari boʻyicha solishtirish orqali oʻrnatilgan;

bazaltfibrot Demirbeton egiluvchi elementlarni meʼyoriy xujjatlar uslublari boʻyicha hisoblash uchun qoʻshimcha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligi eksperimentlarni zamonaviy uslub va asboblardan foydalanib oʻtkazilganligi, olingan natijalarni matematik statistik ishlov berish va hisob natijalarini tajribadan olingan maʼlumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshirilganligi orqali isbotlanadi. Tahlillar bazaltfibrobeton va temirbeton elementlar uchun eksperimental va nazariy tadqiqotlarda oʻrnatilgan natijalarga bogʻliq holda oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bazaltfibrobeton mustahkamligi va deformatsion xususiyatlarining muhim jihatlarini hamda bazaltfibrot Demirbeton egiluvchi elementlarining qisqa muddatli yuklanishlardan mustahkamlik, darzbardoshlik va deformatsiyalanishini qarshiligini eksperimental-nazariy tadqiqotlar orqali oʻrnatilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati berilgan taklif va tavsiyalardan foydalanish hisobidan bazaltfibrot Demirbeton konstruksiyalarini loyihalash jarayonida

ularning ishonchliligini, umrboqiyiligini va samaradorligini ta'minlashi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Egiluvchi temirbeton elementlarda qo'llaniladigan bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarining o'ziga xosligi bo'yicha olingan natijalar asosida:

bazaltfibrobeton tayyorlash texnologiyasini amaliyotga tadbiiq qilishga mo'ljallangan "Kompozit polimer armaturali yahlit bazaltfibrobeton pollar va gidroizolyatsion qoplamalarni o'rnatish" nomli texnologik reglament tayyorlanib "BASALT HOLDING" MCHJ tomonidan joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 25 sentabrdagi №34-06/10906-son ma'lumotnomasi). Natijada, bazaltfibrobeton tayyorlashning yangi texnologiyasi taklif etilgan;

dissertatsiya bo'yicha olingan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari Toshkent arxitektura-qurilish universiteti o'quv jarayoniga tadbiiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 25 sentabrdagi №34-06/10906-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv jarayoniga qo'llash universitetda tayyorlanayotgan kadrlar sifatini bevosita oshirishga imkon yaratgan;

dissertatsiyaning amaliy tavsiyalari ilmiy loyiha markazi "SILVER STONE PROJECT" MChJga foydalanish uchun berilgan. Dastlabki hisoblarga ko'ra, bazaltfibrobetonlarni yahlit pollar va gidroizolyatsion qoplamalarda qo'llash sement miqdorini $50-75\text{kg/m}^3$ va armatura sarfini $3-5\%$ iqtisod qilish mumkinligini aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qiliganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 1 ta Scopus xalqaro bazasiga indekslangan konferensiya materiallari, 6 ta maqola xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamlarida chop etilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan kompyuter dasturlari uchun 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan, 25 ta jadvaldan, 40 ta rasmdan va 6 ta ilovadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan. Bundan tashqari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Fibrobetonlar xossalari o'ziga xosliklari va qo'llanish sohalari**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy - texnik adabiyotlar,

mahalliy va xorijiy nashrlar, qurilish amaliyotida fibro tolalarning ishlab chiqish va qo'llashning bugungi holati va rivojlanishi hamda egilishga ishlovchi konstruksiyalarda fibra tolalardan foydalanish bo'yicha jahon va yurtimizda olib borilgan ilmiy ishlarning nazariy asoslari va amaliy usullari tahlil qilingan.

Ilmiy materiallarining tahlili shuni ko'rsatdiki har xil turdagi fibra tolalarni dispers armatura sifatida qo'llash ma'lum darajadagi texnik samaraga ega. Ularni qo'llanib tayyorlangan fibrobetonlarning siqilishdagi va cho'zilishdagi mustahkamligi 10-30% ga oshishi mumkin hamda tashqi salbiy ta'sirlarga bardoshligi ta'minlanadi. Tadqiqotlarda qo'yiladigan masalalarga qarab, fibrobetonlarning optimal texnologiyasini aniqlash ushbu yo'nalishning asosiy dastlab hal qilinishi dolzarb masaladir. Fibrobetonlarning mustahkamlik va deformatsion xossalarini tadqiq qilish natijalari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning samarali qo'llash sohalarini belgilashda muhim o'rin egallaydi.

Bazaltfibrobetondan tayyorlangan egiluvchi temirbeton elementlarni qisqa muddatli yuklar ta'siridan kuchlanish-deformatsiya holatlarini o'ziga xosligini eksperimental va nazariy tadqiq qilish, ularni hisoblash bo'yicha taklif va tavsiyalar berish muhim omil hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotlarda qo'llanilgan materiallarning xossalari va sinovlarni o'tkazish usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlarda qo'llanilgan materiallarning xossalari, bazaltfibrobeton tayyorlashning yangi texnologiyasi, bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarini eksperimental tadqiqotlari usullari, betonda mikrodarz hosil bo'lish parametrlarini aniqlash, egiluvchi bazaltfibrotemirbeton elementlar konstruksiyasini tayyorlash va sinash usullari keltirilgan.

Bazalt fibralari (ishlab chiqaruvchi "BASALT HOLDING" MChJ) bazalt tolalaridan iborat ma'lum uzunlikdagi bo'laklardan iborat. Uning texnik xususiyatlari quyidagicha:

- rangi bronza rangida;
- zichligi - $2,8 \text{ g/sm}^3$;
- tolalar uzunligi – 10,12,15,20 mm;
- aloxida tolalar diametri – 13-20 mk;
- cho'zilishdagi mustahkamlik - 3500MPa;
- elastiklik moduli - 80 GPa;
- cho'zilish koeffitsienti - 2-4,5%.

Bazaltfibrobeton qorishmasini gravitatsion harakatlanuvchi betonarashtirgichlarda aralashuvi og'irlik kuchining ta'siri hisobidan amalga oshiriladi. Bunda chaqiq tosh va tola qorishmasi tepaga ko'tariladi va pastka tushish harakatlarini navbatma-navbat bajaradi. Dastlabki beton qorishmalarini tayyorlash texnologiyasi laboratoriya sharoitida hajmi 63 l bo'lgan gravitatsion betonarashtirgichda tekshirildi.

Bazaltfibrobeton qorishmasini tayyorlash texnologiyasi bo'yicha berilayotgan tavsiyaga ko'ra aralashtirgichga dastlab 50% chaqiq tosh miqdori yuklanadi va bazalt fibraning bir qismi yuklanib, aralashtirish boshlanadi. Aralashtirish davom etadi, qolgan fibra yana 2-3 bo'laklarga bo'linib tashlanadi va aralashtirish davom ettiriladi.

Soʻngra betonning qolgan tashkil etuvchilari chaqiq tosh, qum, sement va suv qoʻshiladi.

Bazaltfibrobeton qorishmasi tayyorlash texnologiyasi boʻyicha olingan natijalar (qorishmalar holati) 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Bazaltfibrobeton qorishmalarining birinchi (a) va ikkinchi (b) tur boʻyicha tayyorlangandagi holatlari

Shu tartib boʻyicha bazaltfibrobeton qorishmasini tayyorlash bazalt tolalarini alohida-alohida boʻlib ajralishiga va beton hajmi boʻyicha tekis tarqalishiga sharoit yaratadi, chunki yirik toʻldiruvchilar orasidagi maydon ularning hech qanday toʻsiqsiz joylashishiga yetarli boʻladi hamda betondagi sement+qum qorishmasining hajmi ancha ortgan holatga ega boʻladi va uning choʻzilishga boʻlgan mustahkamligi fibrallar xisobidan oshadi.

Ushbu texnologiyani sinash uchun dastlab bazaltfibrobeton tarkibi quyidagicha belgilandi: - sement – 425 kg/m³; chaqiq tosh – 950 kg/m³; qum – 815 kg/m³; bazalt tola – sement massasidan 1%; suv – 210 l/m³.

Ushbu beton tarkibidan tayyorlangan oʻlchamlari 10x10x10 sm boʻlgan beton namunalarning 28 kunlik siqilishga boʻlgan mustahkamlik koʻrsatgichlari 1 jadvalda keltirilgan.

Sinov natijalari

1-jadval

Tayyorlash usuli	Sinash kunidagi beton yoshi, kun	Qoʻshimchasiz beton mustahkamligi, MPa	Bazaltfibro-beton mustahkamligi, MPa	Mustahkamlikning oʻsishi, %
I tur	7	22,6	25,8	14
	14	26,1	30,2	15,8
	28	30,2	34,8	15,2
II tur	7	22,6	26,4	16,8
	14	26,1	31,0	18,7
	28	30,2	34,2	13,2

Olingan natijalarga koʻra, bazaltfibrobetonning siqilishga boʻlgan mustahkamligi qoʻshimchasiz betonning siqilishdagi mustahkamligiga nisbatan oʻrtacha 15% ga oshgan. Bu oʻz navbatida bazaltfibrobeton qorishmasini tayyorlash boʻyicha taklif qilinayotgan texnologiyaning va ogʻir beton tarkibiga bazalt tola qoʻshishning samaradorligini isbotlaydi.

Ushbu natijalarga asoslangan holda o'tkazilayotgan tadqiqotlarning keyingi bosqichida bazaltfibrobetonlarning turli tarkiblarini amalda tekshirishni o'tkazish rejasi tuzildi.


Beton sinflari B15, B20 va B30 bo'lgan og'ir betonlar uchun ularning siqilishga va cho'zilishga bo'lgan mustahkamligini aniqlash uchun tomonlar o'lchamlari 10 sm bo'lgan kub namunalar GOST10180-2012 bo'yicha tayyorlandi. Bunday namunalar betonning yoshi 7,14 va 28 bo'lgan kunlarda MIF-1000 va XSN300 gidravlik presslarida sinaldi.

Bundan tashqari namunalar tayyorlash jarayonida o'lchamlari 10x10x40sm bo'lgan qo'shimchasiz oddiy beton va bazaltfibrobeton prizma tayyorlanib, namunalar yoshi 28 kun bo'lgan siqilishga sinaldi.

Beton prizma namunasini siqilishga sinash natijasida uning quyidagi mexanik xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar olindi:

- prizma mustahkamligi;
- boshlang'ich elastiklik moduli;
- Puasson koeffitsienti;
- chegaraviy siqiluvchanlik (betonning siqilishdagi chegaraviy nisbiy deformatsiyasi).

O'tkazilgan tahlillar natijalari bo'yicha mahalliy hom ashyo materiallari asosidagi bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlari eksperimental tadqiqotlar o'tkazish bilan yetarli darajada o'rganilmaganligi ma'lum bo'ldi. Undan tashqari, bazaltfibrobetonli egiluvchi temirbeton elementlarning mustahkamligi, bikrligi va darzbardoshligi ham tizimli eksperimentlar yordamida yetarli darajada o'rganilmagan. Bazaltfibrobeton strukturasi o'ziga xosligini inobatga olinsa, bunday eksperimentlar yordamida egiluvchi temirbeton elementlarning kuchlanish-deformatsiya holati bo'yicha yangi natijalar kutish mumkin. Shu munosabat bilan ushbu eksperimental tadqiqotlarning masalalari va dasturi aniqlandi. Unga ko'ra, bazaltfibrobetonidan tayyorlangan egiluvchi temirbetonning qisqa muddatli yuklar ta'siridagi ishini o'rganish uchun to'g'ri to'rt burchakli kesim yuzasi 12x24 sm va uzunligi 240 sm bo'lgan to'sinlar tayyorlandi. Bu to'sinlar uch seriyadan iborat bo'lib, ularning egilgan zonasida diametri Ø10, Ø12, Ø14 mm bo'lgan sinfi A400 2 tadan armatura sterjenlari joylashtirildi. Siqilgan zonasida diametri Ø8 mm bo'lgan sinfi A240 ikkita sterjen joylashtirildi. Ko'ndalang armatura sifatida sinfi B-I diametri Ø5 mm lik armatura simlaridan foydalanildi. To'sinlarning o'rta qismida ko'ndalang armaturalar o'rnatilmadi, ya'ni sof egilish zonasi hosil qilindi (2 va 3 rasmlar).



2-rasm. Namuna to'sinlari armatura karkasining ko'rinishi.



3-rasm. Qoliplangan va qolipdan yechilgan to'sin namunalari-sinov modellari.

Namuna to'sinlar kuch beruvchi stendda egilishga sinaldi. Stend maxsus tayyorlangan bo'lib, u to'sinlarni ikkita yig'ilgan kuch orqali yuklab, o'rta qismini sof egilishga sinash imkonini berdi. Yuklash stendining umumiy ko'rinishlari 4 rasmda keltirilgan.



4-rasm. To'sinlarni sinash stendining umumiy ko'rinishi

To'sinlar namunalarini stendning sinash uchun mo'ljallangan 2 ta sharnirli tayanchlariga o'rnatildi. Sharnirlarning shartli ravishda biri qo'zg'almas, ikkinchisi qo'zg'aluvchan qilib tayyorlangan. Kuchlar orasidagi masofa 700 mm, tayanchlardan yukgacha bo'lgan masofalar esa 750 mm ni tashkil etdi. Tayanchdan to'sinlarning chetigacha bo'lgan masofalar 100 mm ni tashkil etdi. Yuk gidravlik domkrat vositasida bosqichma-bosqich berib borildi. Buning uchun taqsimlovchi traversalar qo'llanildi.

Dissertatsiyaning **“Bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlari tadqiqoti natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida bazaltfibrobetonning siqilishga va cho'zilishga bo'lgan mustahkamligi bazaltfibrobeton strukturasiining maksimal zichlashishi (uning mustahkamligiga ijobiy ta'siri bo'yicha) bazalt tolasining sarfi $0,8 \div 1,0\%$ ga teng bo'lgan miqdorda sodir bo'ladi. Bunda betondagi sement sarfi o'zgarmas; sement sarfining har bir miqdorida ($360, 425$ va 530 kg/m^3) mustahkamlikni oshishini kuzatish mumkin. Natijalardagi farq faqat bazaltfibrobeton mustahkamligini o'sish qiymatining turlicha bo'lishida kuzatildi. Bazalt tolasining sarfi $0,8 \div 1,0\%$ dan kam holatda uning miqdori sement

toshining mustahkamligini oshirish uchun yetarli emas, undan ko'p bo'lgan holatda esa ularning alohida-alohida bo'lib bir joyda to'planib qolishi bilan bog'liq, ya'ni notekis taqsimlanishi yuz beradi, oxir oqibat bazaltfibrobeton strukturasi bir xilligi buziladi va kuchlanishlar konsentratsiyasi sodir bo'lib, mikro va makrodarzarlar ancha avval paydo bo'ladi. Xuddi shu kabi, bazalt tolasining uzunligini beton mustahkamligiga ta'siri ham o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari bilan aniqlandi. Bunda bazalt tolaning uzunligini 10,15 va 20 mmga teng qilib olindi. Har bir seriya eksperimentlari uchun 6 tadan oddiy beton va bazaltfibrobeton namunalari tayyorlanib, ularning yoshi 28-35 kunga yetganda statik yuk ta'siriga GOST 10180 bo'yicha sinaldi. Eksperiment natijalariga ko'ra bazalt tolasining uzunligi 20 mm bo'lganda, beton mustahkamligining eng yuqori ko'rsatkichni ta'minladi, ya'ni uning uzunligi yirik to'ldiruvchining o'lchamlariga teng bo'lgan xolatda sodir bo'ldi. Bu natijaga ko'ra shuni tahmin qilish mumkin, bazalt tolasining uzunligi 20 mm dan kam bo'lsa, bazaltfibrobeton mustahkamligini o'sishi yetarli darajada sezilarsiz va aksincha. Bularni sababi, dispers tolasi uzunligining optimal qiymati bilan bog'liq deyish mumkin. Eksperimental tadqiqot natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berildi va ularning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Bazaltfibrobeton va qo'shimchasiz og'ir beton namunalari mustahkamliklari

2-jadval

No	Beton tarkibi	Sement sarfi, kg/m ³	Beton turi	R _m - o'rtacha mustahkamlik, MPa	S _m - mus. o'rt. kvad. xatoligi	V-koef. variatsiya, %
1	1-Seriya	350	Qo'shimchasiz	25,2	1,62	6,32
			BFB (10 mm – 0,5%)	27,5	1,67	6,25
			BFB (10 mm – 1,0%)	27,9	1,64	6,83
			BFB (10 mm – 1,5%)	27,6	1,84	7,21
			BFB (15 mm – 0,5%)	27,9	0,74	3,87
			BFB (15 mm – 1,0%)	29,1	0,92	3,56
			BFB (15 mm – 1,5%)	28,5	0,80	3,21
			BFB (20 mm – 0,5%)	29,1	1,02	4,32
			BFB (20 mm – 1,0%)	30,6	0,47	2,85
2	2-Seriya	425	Qo'shimchasiz	31,4	2,03	6,24
			BFB (10 mm – 0,5%)	35,9	1,91	5,45
			BFB (10 mm – 1,0%)	33,8	1,72	5,37
			BFB (10 mm – 1,5%)	34,3	1,07	3,54
			BFB (15 mm – 0,5%)	34,9	0,78	2,88
			BFB (15 mm – 1,0%)	35,7	1,34	4,35
			BFB (15 mm – 1,5%)	31,5	1,15	4,91
			BFB (20 mm – 0,5%)	34,5	1,60	5,22
			BFB (20 mm – 1,0%)	37,4	0,68	2,54
3	3-Seriya	530	Qo'shimchasiz	37,5	1,55	4,74
			BFB (10 mm – 0,5%)	41,4	1,51	0,04
			BFB (10 mm – 1,0%)	42,0	0,74	2,63
			BFB (10 mm – 1,5%)	41,1	1,70	4,71
			BFB (15 mm – 0,5%)	39,9	1,60	4,36

		BFB (15 mm – 1,0%)	43,5	1,70	3,13
		BFB (15 mm – 1,5%)	43,0	1,09	3,89
		BFB (20 mm – 0,5%)	46,0	0,98	2,66
		BFB (20 mm – 1,0%)	46,5	1,19	3,85
		BFB (20 mm – 1,5%)	44,3	0,87	2,69

Izoh. BFB-bazaltfibrobeton

Asosiy omillar sifatida 1 m³ bazaltfibrobeton tarkibidagi sement sarfi, bazalt tola miqdori va uning uzunligi qabul qilindi. Uch omillik eksperiment rejasiga ko‘ra, chiziqli bog‘lanishni olish uchun Boks-Benkin reja matritsasi javob beradi. Unga ko‘ra x_1 – sement sarfi, x_2 – bazalt tola uzunligi va x_3 – bazalt tola sarfi eksperimentlarni rejalashtirish shartlari qilib belgilandi.

Ushbu eksperimentlarni rejalashtirish shartlariga ko‘ra, bazaltfibrobeton tarkibidagi sement sarfi yuqori boshqaruv darajasiga ega; bazalt tolasining uzunligi va sarfi ham bunday betonlarning mustahkamligini ta‘minlashda yuqori boshqaruv darajasiga ega hisoblanadi.

Bazaltfibrobeton mustahkamligini ifodalash uchun regressiya tenglamasining to‘liq ko‘rinishi $R_i = \bar{R}$ deb, quyidagicha yozildi:

$$R_i = b_0 + b_1 \cdot x_1 + b_2 \cdot x_2 + b_3 \cdot x_3 + b_{12} \cdot x_1 \cdot x_2 + b_{13} \cdot x_1 \cdot x_3 + b_{23} \cdot x_2 \cdot x_3 + b_{123} \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \quad (1)$$

bu yerda: b_0, b_i, b_{ii}, b_{ij} – regressiya tenglamasining ozod a‘zolari va omillarning bir-biriga ta‘siri ko‘rinishidagi koeffitsentlari.

Eksperiment natijalarida keltirilgan boshlang‘ich parametrlar bo‘yicha formulalardan foydalanib regressiya tenglamasi koeffitsentlari aniqlandi: $b_0 = 35,56$, $b_1 = 7,217$, $b_2 = 1,289$, $b_3 = -0,028$, $b_{12} = 0,5$, $b_{13} = -0,008$, $b_{23} = 0,233$, $b_{123} = -0,225$.

Ushbu koeffitsentlar Styudent t-kriteriy yordamida aniqlandi; uning qiymati qabul qilingan tadqiqotlar sharoiti uchun $t = 2,06$ ga teng.

Matematik model sifatida bazaltfibrobetonning mustahkamligini aniqlash uchun regressiya tenglamasining oxirgi ko‘rinishini quyidagicha yozish mumkin:

$$R = 35,56 + 7,217 \cdot x_1 + 1,289 \cdot x_2 - 0,028 \cdot x_3 + 0,5 \cdot x_1 \cdot x_2 - 0,008 \cdot x_1 \cdot x_3 + 0,233 \cdot x_2 \cdot x_3 - 0,225 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \quad (2)$$

Ushbu (2) tenglama eksperimental tadqiqotlar natijalarini 0,95 ishonchlilik ehtimoli bilan aniqlashni ta‘minlaydi, chunki hisobiy Fisher F- kriteriyasi $F_r=8,22$ ga teng va $F_m=9,55$ qiymatidan ko‘p emas. F- kriteriy qiymatida keltirilgan uslub bo‘yicha aniqlangan.

Qo‘shimchasiz oddiy beton va bazaltfibrobetonlarning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi oltita namunani o‘rtacha qiymatiga statik ishlov berib topilgan bo‘lsa, cho‘zilishdagi mustahkamlik esa, uchta namuna natijalarining bir-biriga yaqin ikkita natijaning o‘rtacha qiymati bo‘yicha aniqlandi (3 jadval).

Qo‘shimchasiz og‘ir beton va bazaltfibrobeton namunalarning cho‘zilish mustahkamligi

3 jadval

No	Beton turi	Beton tarkibi	Namunalar yoshi, kun	Mustahkamlik, MPa
1	Qo‘shimchasiz oddiy beton	1-S	28	2,8
		2-S	28	3,2
		3-S	28	3,9
2	Bazaltfibrobeton	1-S	28	3,4
		2-S	28	3,8
		3-S	28	4,5

Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mahalliy xom ashyo materiallarini qo‘llab, og‘ir betonga bazalt tolalarini qo‘shish uning mustahkamligini oshirishi aniqlandi (4-jadval) va bu o‘z navbatida konstruksiyalarni ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilishga imkon yaratadi.

Bazalt tolasini beton tarkibiga qo‘shilishining samaradorligi

4 jadval

Bazalt tola		Betoning o‘rtacha mustahkamligi, R_{pp} , MPa	Qo‘shimchaning samaradorligi, ΔR_{28} , %
uzunligi, mm	miqdori, %		
S=360 kg/m ³		2,8	-
10	1,0	3,1	10,7
12	1,0	3,2	14,3
15	1,0	3,1	10,7
20	1,0	3,4	21,4
S=425 kg/m ³		3,2	-
10	1,0	3,7	15,6
12	1,0	3,7	15,6
15	1,0	3,8	18,7
20	1,0	3,5	9,3
S=530 kg/m ³		3,9	-
10	1,0	4,1	5,1
12	1,0	4,6	17,9
15	1,0	4,3	10,3
20	1,0	4,5	15,4
O‘rtacha texnik samaradorlik			≈14%

Bazaltfibrobeton mustahkamligiga superplastifikator qo‘shimchasining ta‘siri o‘rganish maqsadida LEVELCON FX6-SR va LEVELCON PF-300 kimyoviy qo‘shimchalaridan foydalanildi. Superplastifikatorlar miqdori sement massasiga nisbatan 1% etib belgilandi, chunki bu miqdor ko‘p tadqiqotlar natijalari bo‘yicha aniqlangan va u qo‘shimchani ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan miqdorga (0,6-1,5%) to‘g‘ri keladi.

Superplastifikatorlar qo‘shilgan betonlardan tayyorlangan beton kub namunalarning siqilishiga va cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamliklarini aniqlash uchun ular 7 va 28 kunlarda gidravlik presslarda sinaldi.

Ushbu sinovlar bo‘yicha olingan natijalar 5-jadvalda mos ravishda LEVELCON FX6-SR va LEVELCON PF-300 qo‘shilgan betonlar uchun keltirilgan.

Sinash natijalari

5-jadval

Beton turi	Qo'shimcha	Namunalar yoshi, kun	Mustahkamlik, MPa
Og'ir beton	FX6	7	31,6
		28	35,3
		cho'zilish	4,5
	PF300	7	33,3
		28	39,1
		cho'zilish	4,6

Bazalt tolasini sement massasiga nisbatan 1% miqdorda va uzunligi 20 mm dan qo'llanildi. Tayyorlangan namunalar qo'shimchasiz va superplastifikator qo'shimchali betonlar kabi 7 va 28 kunlik yoshdagi mustahkamliklari tekshirildi. Olingan natijalar 6 va 7 jadvalda keltirilgan.

Sinash natijalari

6-jadval

Beton turi	Qo'shimcha	Namunalar yoshi, kun	Mustahkamlik, MPa
Og'ir beton	Bazalt tola	7	30,5
		28	37,0
		cho'zilish	3,8

Sinash natijalari

7-jadval

Beton turi	Qo'shimcha	Namunalar yoshi, kun	Mustahkamlik, MPa
Og'ir beton	FX6+Bazalt	7	40,1
		28	50,5
		cho'zilish	4,9
	PF300+ Bazalt	7	41,4
		28	46,0
		cho'zilish	4,7

Bazaltfibrobetonning mustahkamlik va deformatsion xususiyatlarining o'ziga xosligida quyidagi ko'rsatkichlarda aniqlandi:

- betonlarning prizma mustahkamligi;
- betonning boshlang'ich elastiklik moduli;
- Puasson koeffitseinti;
- prizmaning mustahkamligi koeffitsienti;
- betonning siqilishdagi chegaraviy deformatsiya qiymati.

Har bir namuna uchun yuklash qiymati buzilish qiymatining 30%ga teng bo'lganda mos ravishda beton boshlang'ich elastik moduli (E_b) va Puasson koeffitsienti (μ) quyidagi formulalardan aniqlandi:

$$E_{\sigma} = \frac{\sigma_1}{\varepsilon_1} \quad (3)$$

$$\mu = \frac{\varepsilon_{2u}}{\varepsilon_1} \quad (4)$$

bu yerda: $\sigma_1 = \frac{P_1}{F}$ buzilish yukining 30% miqdoridagi kuchlanish qiymati;

P_1 - tashqi yukning o'sishi;

F- namunaning haqiqiy yuza o'lchami;

ε_1 va ε_2 - bo‘ylama va ko‘ndalang deformatsiyalarning $P_1=0.3 \cdot P_p$ dagi mos ravishda qiymatlari.

ε_{1u} va ε_{2u} larning qiymatlari mos ravishda quyidagi formulalardan aniqlangan:

$$\varepsilon_{1u} = \varepsilon_1 - \sum \varepsilon_{1n} \quad (5)$$


$$\varepsilon_{2u} = \varepsilon_2 - \sum \varepsilon_{2n} \quad (6)$$

bu yerda: ε_1 va ε_2 - bo‘ylama va ko‘ndalang to‘liq nisbiy deformatsiyalarning oshishlari va bosqichni yuklash oxirida olingan qiymatlari;

$\sum \varepsilon_{1n}$ va $\sum \varepsilon_{2n}$ - betonning tezoquvchanligidan bo‘ylama va ko‘ndalang deformatsiyalarning $P_1=0.3 \cdot P_p$ gacha bo‘lgan yuklashni o‘zgartirmagan vaqtdagi qiymatlari yig‘indisi.


ε_{1n} va ε_{2n} - qiymatlari o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘yicha aniqlandi.

Aniqlangan sinov natijalaridan foydalanib bazaltfibrobeton va oddiy beton uchun siqilishdagi “ $\sigma - \varepsilon$ ” diagrammalari qurildi. Ular mos ravishda 5 va 6 rasmlarda keltiriladi.



5-rasm. Qo‘shimchasiz oddiy beton namunalari uchun siqilishdagi “kuchlanish-deformatsiya” ($\sigma - \varepsilon$) diagrammasi

O‘tkazilgan sinov natijalari bo‘yicha “ $\sigma - \varepsilon$ ” diagrammasini qurish uchun kerak bo‘ladigan bo‘ylama va ko‘ndalang deformatsiyalarning chegaraviy qiymatlarini aniqlash uchun, ularning oxirgi ko‘rsatkichlari $\frac{\sigma_b}{R_b} = 1,0$ ga teng bo‘lguncha qadar davom ettirildi. Betonlarning prizma mustahkamligi (R_b) qayd qilingan buzuvchi yukni namunaning kesim yuzasiga bo‘lish orqali aniqlandi.



6-rasm. Bazaltfibrobeton namunalari uchun siqilishdagi “kuchlanish-deformatsiya” ($\sigma - \varepsilon$) diagrammasi

Bazaltfibrobeton va oddiy betondan tayyorlangan prizma namunasidan tashqari, ularni tayyorlash vaqtida bir beton qorishmasidan kub namunalar ham quyilgan. Ularni beton prizmalarni sinashdan oldin betonning kub mustahkamligini aniqlash uchun gidravlik presslarda sinaldi; olingan kub mustahkamligining o'rtacha qiymatini 80% prizma mustahkamligiga teng deb, ularni sinash uchun har bosqichdagi yuklash darajasi qilib o'rnatildi. Ushbu sinov natijalari bo'yicha prizma mustahkamligining koeffitsienti ($K_{pp} = \frac{R_b}{R}$) hisoblandi. Bu hisoblarga ko'ra, quyidagi natijalar olindi:

- bazaltfibrobeton uchun K_{pp} ning qiymati $0,84 \div 0,88$ oralig'ida o'zgarishi o'rnatildi;

- oddiy beton uchun K_{pp} ning qiymati $0,79 \div 0,80$ oralig'ida o'zgarishi o'rnatildi. Olingan natijalarni solishtirish orqali ushbu xulosani keltirish mumkin, bazaltfibrobeton uchun K_{pp} qiymati qo'shimchasiz oddiy betonning ana shunday ko'rsatkichidan 10% gacha ortiq. Bunga betonlar tarkiblari bir xil, farqi faqat dispers armatura sifatida bazalt tolalari qo'llanilganligida, deb qarash mumkin. 8 va 9 jadvallarda betonlarning elastiklik modullari bo'yicha olingan qiymatlari tahlili va natijalari keltirilgan.

Bazaltfibrobetonlar uchun tajribaviy va xisobiy elastiklik modullari qiymatlarini solishtirish natijalari

8-jadval

No t.r.	Prizma mustahkamligi R_b , MPa	Elastiklik moduli tajribaviy E_b^{on} , MPa	Elastiklik moduli hisobiy E_b^p , MPa	E_b^p / E_b^{on}
1	34,3	32400	33480	1,03
2	33,1	33900	33040	0,97
3	32,6	32800	32850	1,0
4	33,7	33700	33260	0,98
5	34,0	32500	33370	1,03
6	32,1	33200	32650	0,98
7	46,7	46000	37100	0,81
8	48,2	45500	37460	0,82
9	50,1	46300	37880	0,82
10	42,5	45200	36040	0,80
11	47,8	46600	37370	0,80
12	43,6	46400	36330	0,78
O'rtacha nisbat				0,90


Bazaltfibrobetonning boshlang'ich elastik modullarini qiymatlarini solishtirish.

9-jadval

Beton sinfi	Betonlarning elastiklik modullari ($E_b * 10^{-3}$) MPa		E_b^2 / E_b^1
	Oddiy beton QMQ 2.01.03-21 bo'yicha (E_b^1)	Bazaltfibrobeton eksperiment bo'yicha (E_b^2)	
B25	30,0	-	-
B30	32,5	33,1	1,02
B35	34,5	36,2	1,05
B40	36,0	45,2	1,26
B45	37,5	46,3	1,23
O'rtacha qiymat			1,14

Beton prizmani yuklashdan ma’lum bosqichda hajm kichrayishi kuzatildi. Ushbu kichrayishning boshlang‘ich nuqtasi R_{crc}^o ga va ko‘ndalang deformatsiyasi differensial koeffitsienti $\Delta v = 0,5$ ga teng nuqta R_{crc}^v parametr deb qabul qilingan (prof. O. Ya. Berg usuli bo’yicha).

Bazaltfibrabeton uchun ushbu dissertatsiya ishida olingan natijalar og‘ir beton uchun olingan statistik bog‘liqliklarga yaqin, ammo bazaltfibrobeton uchun eksperiment natijalari ancha yuqorida joylashgan (7 rasm).



7-rasm. Bazaltfibrobetonda darz xosil bo‘lish parametrlarining prizma mustahkamligiga bog‘liqligi.

-----bazaltfibrobeton uchun taklif etilgan bog‘liqlik;

_____ - og‘ir beton uchun berilgan bog‘liqlik.

7 rasmdagi bog‘lanishlardan kelib chiqadigan muhim xususiyat, bu R_{crc}^o/R_b va R_{crc}^v/R_b nisbatlar va beton prizma mustahkamliklari orasida kuzatilayotgan zich aloqa mavjudligi hamda uning xarakteri og‘ir betonlar uchun o‘rnatilgan approksimatsion ifodaga xos. Ushbu bog‘liqlikni saqlagan holda bazaltfibrobeton uchun R_{crc}^o va R_{crc}^v parametrik nuqtalarni baholash uchun quyidagi ifodalarni taklif qilish mumkin:

$$\frac{R_{crc}^o}{R_b} = 0,35 \cdot \lg \cdot R_b - 0,38 \quad (7)$$

$$\frac{R_{crc}^v}{R_b} = 0,35 \cdot \lg \cdot R_b - 0,08 \quad (8)$$

Bazaltfibrobetonlar uchun darz xosil bo‘lish parametrlari bo’yicha olingan natijalarga statistik ishlov ko‘rsatkichlari 10 jadvalda keltirilgan.

10 jadval

№ t.r.	Betonning darz xosil bo‘lish parametrlari nomi	Statistik taqsimot parametrlari qiymatlari		
		η	σ	$\delta, \%$
1.	Og‘ir beton uchun pastki darz xosil bo‘lish parametrlari (R_{crc}^o)	0,95	0,024	2,6
2.	Og‘ir beton uchun yuqori darz xosil bo‘lish parametrlari (R_{crc}^v)	0,97	0,013	1,3
3.	Bazaltfibrobeton uchun pastki darz xosil bo‘lish parametrlari (R_{crc}^o)	0,97	0,013	1,3
4.	Bazaltfibrobeton uchun yuqori darz xosil bo‘lish parametrlari (R_{crc}^v)	0,96	0,011	1,2

Ilova: η – tajriba va xisobiy natijalar nisbatining o‘rtacha qiymati;

σ – bu o‘rtacha nisbatning o‘rtacha kvadratik og‘ishi ;

δ –variatsiya koeffitsienti.

Ekspiriment natijalariga statistik ishlov berish shuni tasdiqlaydi: taklif etilayotgan ifodalardan foydalanish bazaltfibrobeton uchun R_{crc}° va R_{crc}^V parametrlari bo'yicha hisobiy va tajriba qiymatlarining o'zaro mosligini tasdiqlaydi. Unga ko'ra tajriba va hisobiy natijalar nisbatining o'rtacha qiymati 0,95-0,97 ga va variatsiya koeffitsienti 1,2-2,6% ga teng.

Disseratatsiyaning **“Egiluvchi bazaltfibrotemirbeton elementlarni qisqa muddatli yuklar ta'siriga qarshiligini tadqiqoti natijalari”** deb nomlanuvchi to'rtinchi bobi bazaltfibrotemirbeton to'sinlarning mustahkamliklari, darzbardoshliklari va bikrikklarining eksperimental tadqiqot natijalari tahlili va ularning texnik-iqtisodiy samadorligiga bag'ishlangan.

